

IBN SOATIY ILMIY MEROSINING HANAFIY MAZHABINI O'RGANISHDAGI O'RNI

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi magistri,
Xoja Buxoriy o'rta maxsus islom ta'lim
muassasasi Usulul fiqh fani o'qituvchisi
Abdushukurov Ahror Mahmud o'g'li

Annotatsiya: Imom Muzaffaruddin ibn Soatiyning shaxsiyati, u tug'ilib o'sgan oilaviy muhit hamda u ulg'aygan davrdagi ilm-fanga bo'lgan e'tibor, uning ustoz va shogirdlari ilmiy faoliyatini o'rganish va tahlil qilish orqali uni yaxshiroq tanib olish;

Ibn Soatiy ta'lif qilgan asarlar va ularning hanafiy fiqhini o'rganishda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib olish.

Kalit so'zlar: Muzaffariddin ibn Soatiy, bag'dodiy, hanafiy, Mustansiriyya madrasasi, hanafiy fiqhi, usul al-fiqh.

Ibn Soatiyning ilmiy faoliyat yo'li asosan ta'lim muassasasida bo'lib, u shogirdlariga fiqh, usul va adabiyot kabi fanlardan ilm berishga e'tibor qaratgan. Yuqorida bayon qilib o'tilganidek, u Mustansiriyya madrasasiga aloqador insonlardan biri bo'lib, ilk faoliyat davrida mudarrisga yordamchi, ya'ni, "المعيد" "al-muid" (takrorlatuvchi) so'ngra mudarris bo'lib faoliyat olib borgan. Biroq asosiy faoliyati ta'lim va tadrish bo'lishiga qaramasdan, ta'lif sohasida ham mohir va peshqadam bo'lgan. Uning yozgan asarlari o'sha davr va hozirgi kunimiz olimlari uchun fan sohalarida asosiy va mo'tabar manba deya e'tirof etib kelinadi.

Muallifning yozgan asarlari keyingi davr olimlari nazdida ulug' maqom va darajaga ega ekanligini uning birgina asari "Majma' al-bahrayn" asari misolida ko'rishimiz mumkin.

Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniyning "al-Jome' as-sag'ir" asariga Abdulhay Laknaviy tomonidan yozilgan "an-Nofe' al-kabir" nomli sharhning muqaddimasida mujtahid va faqihlar tabaqalarini keltirish asnosida:

"Oltinchi tabaqa. Bu dalillar ichida aqvo (eng kuchli), qaviy (kuchli) va zaiflarini ajrata olish salohiyatiga ega muqallidlar tabaqasi bo'lib, bu tabaqaga mansub olimlar

sirasiga mazhabda mo'tabar to'rt matn "Kanz ad-daqqiq", "al-Muxtor", "al-Viqoya" hamda "Majma' al-bahrayn" asarlarining mualliflarini keltirishimiz mumkin"¹

Bu matn kitoblarning afzallik jihati shundaki, agar matn kitoblarida va ulardan boshqa sharh va fatvo kitoblarida kelgan masalalar bir-biriga qarama-qarshi kelib qolsa, e'tibor matn kitoblarida kelgan masalalarga, so'ngra mo'tabar sharhlarga, undan so'ng fatvo kitoblaridagi masalalarga bo'ladi. Biror masala matn kitoblarida mavjud bo'lmasa, biroq sharh va fatvo kitoblarida mavjud bo'lsa, u holda sharh va fatvo asarlariga murojaat qilinadi².

Muhammadamin ibn Obidin "Radd al-muhtar ala ad-durr al-muxtar" asarining muqaddimasida faqihlarning tabaqalarini bayon qilish asnosida quyidagicha keltirib o'tadi:

"طبقة المقلدين القادرين على التمييز بين الأقوى والقوي، و ظاهر المذهب و الضعيف، و ظاهر الرواية، و الرواية النادرة، كأصحاب المتون المعتبرة من المتأخرين مثل صاحب "الكنز" و صاحب "المختار" و صاحب "المجمع" و صاحب "الوقاية" و شأنهم أن لا ينقلوا في كتبهم الأقوال المردودة و الروايات الضعيفة"

"Bu tabaqa dalillar ichida aqvo (eng kuchli), qaviy (kuchli), zohir al-mazhab (mazhabning asosi bo'lgan so'zlar), nodir masalalar o'rtasini ajrata olish salohiyatiga ega muqallidlar tabaqasidir. Bu tabaqaga mutaaxxirlardan mo'tabar to'rt matn – "al-Kanz", "al-Muxtor", "al-Majma'" va "al-Viqoya" asarlari – mualliflarini keltirishimiz mumkin. Ularning vazifasi o'z asarlarida mardud qavllarni va zaif rivoyatlarni naql qilmaslikdir³"

Ko'plab olimlar muallifning keng ilm va fazilat sohibi ekanligini e'tirof etib, usul, fiqh, balog'at, nahv va xattotlik kabi ilmlarda imomlik maqomiga erishganligining guvohi bo'lishgan.

Abdulhay Laknaviy "al-Favaid al-bahiyya fi tarajim al-hanafiyya" asarida keltirishicha, u shar'iy ilmlar borasida o'z asrining imomi, hofiz, siqa va usul hamda furu' masalalarida mutqin bo'lgan. Hatto o'z zamonasining mashoyixlari uni ilm maydonidagi tengsiz chavandoz, deya e'tirof qilishar edi⁴.

Abu Muhammad Abdulloh ibn As'ad Yofi'iy (vaf.768/1366) "Mir'at al-jinan" asarida 694/1295-yil hodisalarini zikr qilib, "Bu yilda Ibn Soatdiy nomi bilan tanilgan

¹ Abdulhay Laknaviy. An-nofe' al-kabir sharh al-Jome' as-sag'ir. – Karachi/Pokiston: Idarot al-Qur'on val ulum al-islamiyya, 1411/1990. – B. 11.

² Yuqoridagi manba, 26-bet.

³ Muhammadamin ibn Obidin. Radd al-muhtar alad durr al-muxtar / Shayx Odil Abdulmavjud va shayx Ali Muhammad Muavviz tahqiqi. – Riyod/Saudiya Arabistoni: Daru a'lam al-kutub, 1423/2003. – J.I. – B.30.

⁴ Abulhasanot Abdulhay Laknaviy. Al-favaid al-bahiyya fi tarajim al-hanafiyya. – Misr: Matba'at as-sa'adat, 1324. – B.26

hamda Bag‘dod madrasasida hanafiylar shayxi bo‘lgan Muzaffariddin Ahmad ibn Ali vafot etgan. U zakovat, fasohat va husnixat bobida zarbulmasal qilinar edi. Uning fiqh, usul hamda odob-axloqqa doir ko‘plab tasnifotlari mavjud. U Bag‘doddagi Mustansiriyya madrasasida bir guruh hanafiy fiqhini o‘rganuvchi talabalarga mudarrislik qilgan” deya keltirib o‘tadi.⁵

Abduqodir Qurashiy u haqda so‘z yuritib, “U ulug‘ imom hamda fazilat sohibi bo‘lgan. Shamsiddin Asfahoniy (vaf.749/1348) Ibn Soatiyni hurmat qilar va u borada ko‘plab maqtovlarni keltirar edi. Hatto uni Ibn Hojibga (vaf.646/1248) afzal qo‘yib, “Ibn Soatiy Ibn Hojibdan ko‘ra zakovatliroq bo‘lgan”– der edi” deya keltirib o‘tgan⁶. Yusuf ibn Tag‘ribardiyning keltirishicha, u turli ilmlar borasida mohir, o‘z mazhabi bo‘yicha mutqin hamda o‘z zamonasining benaziri deya e‘tirof qilinadigan olim bo‘lgan⁷.

Tamimiy “at-Tobaqot as-saniyya fiy tarojim al-hanafiyya” asarida keltirishicha, u kuchli zakovat sohibi, balog‘at va fasohatda tengsiz olim bo‘lgan. Uning fasohati, zakovati hamda go‘zal xat uslubi borasida zarbulmasal ham qilinar edi⁸.

Xayriddin Zirikliy u haqda “... hanafiy fiqhi bilimdoni bo‘lgan” deya keltirgan⁹.

Umar Rizo Kahola (vaf.1408/1987) uning tarjimai holini keltirish asnosida “faqih, usul al-fiqh bilimdoni hamda adib bo‘lgan” dedi.

Abdulloh Mustafo Marog‘iy (vaf.1364/1945) ham uning keng ilm va fazilat sohibi ekanligini e‘tirof etib, “Uning fiqh hamda usulga doir asarlari mavjud bo‘lib, bu asarlar uning ulug‘ martaba sohibi ekanligi hamda hanafiy va shofei mazhabining usulini to‘la egallay olgan olim ekanligiga dalil bo‘la oladi” deya keltirib o‘tadi¹⁰.

Qosim ibn Qutlubug‘oning keltirishicha, u vafot etgan sana 694/1295-yilda ekanligi o‘z tasdig‘ini topgan. Shuningdek, Abdulloh Qurashiy, Abu Abdulloh ibn As‘ad Yofi‘iy, Abdulhay Laknaviy, Xayriddin Zirikliy, Abdulloh Mustafo Marog‘iy

⁵ Abu Muhammad Abdulloh ibn As‘ad ibn Ali ibn Sulaymon al-Yofi‘iy al-Yamaniy. Mir‘at al-jinan va ibrot al-yaqzon fiy ma‘rifati ma yutabaru min havadis az-zaman. – Bayrut/Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1417/1997. – J.IV. – B.170.

⁶ Muhiddin Abu Muhammad Abdulqodir ibn Abulvafo Muhammad ibn Muhammad ibn Nasrulloh ibn Solim ibn Abulvafo al-Qurashiy al-Hanafiy. Al-javahir al-muziy‘a fiy tobaqot al-hanafiyya / Abdulfattoh Muhammad al-Halvo tahqiqi. – Haydarobod/Hindiston: Daru Hajar, 1413/1993. – J.I. – B.209.

⁷ Yusuf ibn Tag‘ribardiy. Al-manhal as-sofiy. – Misr: Al-hay‘ay al-misriyyat al-amma lil kitab, 1948. – J.I. – B.421.

⁸ Taqiyiddin ibn Abduqodir Tamimiy Dariy G‘azziy. At-tabaqot as-saniyya fiy tarojim al-hanafiyya / Abdulfattoh Muhammad Halv tahqiqi. – Riyod/Saudia Arabistoni: Dar ar-Rifo‘iy, 1410/1989. – J. – B.400

⁹ Xayriddin Zirikliy. Al-a‘lam. – Bayrut/Livan: Dar al-ilm lil malayin, 2002. – J.I. – B.175.

¹⁰ Abdulloh Mustafo Marog‘iy. Al-fath al-mubin fiy tabaqot al-usuliyyin. – Misr: al-murosulat, (Yili ko‘rsatilmagan). – J.II. – B.97,98.

kabi olimlar uning ushbu sanada vafot etganligiga ittifoq qilishgan. U Junayd Bag'dodiyning yoniga dafn qilingan¹¹.

Ibn Soatiyning ilmiy faoliyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u usuliy va far'iy masalalarni bayon qilish hamda adabiyot, husnixat va notiqlik sohasida mohir bo'lganligiga uning yozgan asarlari ham isbot bo'ladi.

U qisqa muddat umr kechirgan bo'lsada, uning qoldirgan boy ilmiy merosi keyingi davr olimlari uchun hanafiy fiqhi va usulini fahmlashda yordam beruvchi asosiy manbalar qatorida e'tirof etib kelinadi.

U asosan usul al-fiqh va fiqh borasida asarlar yozgan. Tarixiy manbalarda uning quyidagi asarlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan:

1. Majma' al-bahrayn va multaqa an-nayyirayn. Bu asar fiqh borasida yozilgan muxtasar matn hisoblanadi. Ba'zi manbalarda bu asarning nomi "Majma' al-bahrayn va multaqa an-nahrayn" bo'lib kelgan.¹² Biroq tarixiy manbalarning aksariyati bu asar "Majma' al-bahrayn va multaqa an-nayyirayn" ekanligini tasdiqlaydi. Muallif bu asarda hanafiy mazhabida mo'tabar asar hisoblanuvchi imom Quduriyning "Muxtasar al-Quduriy" va Abu Umar Nasafiyning "al-Xilafiyyat" manzumasi o'rtasini jamlagan va ba'zi fiqhiy masalalarni ham kiritgan. Bu asarning nikoh va razoat (emizish) kitobi 1983-yilda Azhar universitetida tahqiq qilingan. Muallif bu asarni umrining so'ngi yillarida hijriy 690/1291-yilda ta'lif qilgan. Hasan Husniy Poshshoning nusxasida: "Muallif bu asarni 690/1291-yilda Rajab oyining sakkizinchisi sanasida yozib tugatgan" deya keltirib o'tilgan. Hoji Xalifa bu asar haqida keltirib, "Ibn Soatiy kitobning avvalida "Olimlarni hidoyat topish uchun yulduzlar kabi qilgan Alloh taolaga hamdlar bo'lsin!" deya keltirgan. Muallif bu asarda Quduriyning "Muxtasar"i va Nasafiyning "al-Xilafiyyat" manzumasini jamlab, unga ba'zi ziyodaliklar ham kiritgan. U kitobni go'zal ko'rinishda tartiblab, muxtasar qilgan. U har bir kitob so'ngida o'sha kitobga tegishli bo'lgan ba'zi nodir masalalarni ham kiritib o'tgan. Muallifning o'ziga tegishli bo'lgan nusxasi Sulton Muhammad Fotih masjidida vaqf qilingan kitoblar orasida mavjud. Muallif bu asarni 690/1291-yil Rajab oyining sakkizinchisi kunida yozib bo'lgan. Bu asar o'ta mo'jazligi sababli yodlanishi oson, kishini nihoyatda o'ylantirib

¹¹ Abul fado Zayniddin Qosim ibn Qutlubug'o as-Suduniy. Taj at-tarojim / Muhammad Xayr Ramazon Yusuf tahqiqi.- Bayrut: Dar al-qalam, 1413/1992. – B.95.

¹² Ismoil Poshsho Bag'dodiy. Hadiyyat al-arifin asma al-muallifin va asar al-musannifin.-Bayrut/Livan: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1951. – J.I. – B.101.

qo‘yganligi sababli yechimi qiyin, masalalari dengiz hamda fazilatlarini cheksiz bo‘lgan bir asardir” deya keltirgan¹³.

Ushbu asarning bir nusxasi Misrdagi Dar al-kutub al-misriyya kutubxonasida hanafiy fiqhi bo‘limida 1230-raqam ostida saqlanadi. Bu nusxa bo‘yicha kitobning sahifalari soni 143 tani tashkil qiladi.

Bu asarga ko‘plab sharhlar yozilgan. Ular haqida quyidagi bobda batafsil ma’lumot berib o‘tiladi.

2. Sharhu majma’ al-bahrayn va multafo an-nayyirayn. Bu asar ikki jildan iborat bo‘lib, uning avvalida “Allohga hamd-u sano, u saylab olgan xos bandalariga salom bo‘lsin!” deya boshlangan. Muallif bu asarni o‘sha davrda Bag‘doddagi abbosiy xalifalardan bo‘lgan Abulqosim Abdulloh ibn Yusuf Mustansir billahga atab yozgan. Bu asarning Istanbul shahridagi Valiyiddin Jarulloh Afandi kutubxonasida 704-raqam ostida saqlanayotgan nusxasi mavjud bo‘lib, uning birinchi betida “Bu “Majma’ al-bahrayn” asariga musannifning o‘zi tomonidan yozilgan sharhdir. Bu juz asarning Vaqf kitobigacha bo‘lgan qismidir. Uning ikkinchi juzida asarning oxirigacha bo‘lgan qismi mavjuddir” degan ma’lumot keltirilgan. Majma’ al-bahrayn” asarining bundan boshqa ham ko‘plab sharhlari mavjud bo‘lib, ular ichida manfa’ti ko‘proq bo‘lgan sharh bu Ibn Malak (vaf.801/1398) tomonidan yozilgan sharhdir. Ko‘plab muhaqqiqlar “Majma’ al-bahrayn” asarini tahqiq qilishda ushbu sharhdan foydalanishgan.

3. Badi’ an-nizom bayna kitab al-Bazdaviy val ihkam” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Nihayat al-vusul ila ilm al-usul” asari. Bu asar “al-Badi” nomi bilan mashhur bo‘lganligi sababli olimlar bu asarni shu nom bilan keltirishgan. Ismoil Poshsho Bag‘dodiy¹⁴, Xayriddin Zirikliy¹⁵ kabi ba’zi olimlar muallifning tarjimai holini bayon qilish asnosida “Badi’ an-nizom” asari hamda “Nihayat al-vusul ila ilm al-usul” asarini alohida asarlar sifatida keltirishgan. Hoji Xalifa bu asar haqida “Bu asar hanafiy shayxlaridan biri “Muzaffariddin” nomi bilan tanilgan Ibn Soatiyning qalamiga mansubdir. Muallif bu asarda hanafiy olimlaridan “faxr al-islom” nomi bilan tanilgan Bazdaviy (vaf. 482/1089) qalamiga mansub “Kanz al-usul” asari hamda shofei mazhabining mashhur imomlaridan biri Sayfiddin Omidiy (vaf.631/1233) tomonidan

¹³ Hoji Xalifa Mustafo ibn Abdulloh. Kashf az-zunun an asamiy al-kutubi val-funun.-Bayrut/Livan: Daru ihya at-turo al-arabiy,(yili ko‘rsatilmagan) – J.II. – B.1599,1600.

¹⁴ Ismoil Poshsho Bag‘dodiy. Hadiyyat al-arifin asma al-muallifin va asar al-musannifin. – Bayrut/Livan: Muassasat at-tarix al-arabiy, 1951. – J.I. – B.100.

¹⁵ Xayriddin Zirikliy. Al-a’lam. – Bayrut/Livan: Dar al-ilm lil malayin, 2002. – J.I. – B.175.

yoʻzilgan “al-Ihkam fiy usul al-ahkam” asarini jamlagan¹⁶. Asarning avvali: “Ey mavjudligi doimiy boʻlgan Zot, yaxshilik senga xosdir” deya boshlangan. Bu asar nomiga mos ravishda hanafiy va shofeiyy usul qoidalarini goʻzal va koʻrkam suratda oʻzida jamlagan. Muallif bu asarni yozishda hanafiy mazhabining farʼiy masalalariga tayangan va bu mazhab masalalarini har bir bobning asli deya eʼtibor qilib, kitobda bayon qilingan misollarning barchasini oʻzining mazhabi boʻyicha keltirgan. U bu asarida biror qoidada hanafiy mazhabiga mos misol topa olsa, uni olib, unga qarshi fikr bildiruvchilarga raddiyalar bergan. Shofeiyy mazhabining usuliy qoidalariga mos keluvchi biror misol keltirgan boʻlsa, unga qarshi hujjat keltirish uchungina u qoidalariga toʻxtalib oʻtgan. U asarning aksar qismida ikki olimning asaridan foydalangan boʻlsa-da, biroq baʼzi oʻrinlarda Saraxsiyning (vaf.490/1096) “al-Usul”, Imom al-haramayn Juvayniyning (vaf.478/1085) “al-Burhon” asariva shu kabi usul al-fiqh ilmiga odir asarlardan ham foydalangan. Baʼzi masalalar borasida hanbaliy va molikiy mazhablariga ham muroajaat qilgan. Muallif bu asarni boblarga ajratish borasida Omidiyning uslubiga tayangan. U kitobni toʻrtta qoidaga¹⁷ ajratib, birinchi qoidani lugʻaviy hamda fiqhiy istilohlarni bayon qilishga, ikkinchi qoidani samʼiy dalillar va ularning turlarini bayon qilishga, uchinchi qoidani ijti-hod, fatvo beruvchi va fatvo soʻrovchiga tegishli masalarni bayon qilishga, toʻrtinchi qoidani esa, tarjihotlar va dalil olish yoʻllarini bayon qilishga bagʻishlagan. Bu kitob ikki mazhab usul qoidalari oʻrtasida mushtarak asar boʻlganligi sababli hanafiy va shofeiyy olimlaridan koʻpchiligi bu asarga sharhlar yozishga muvaffaq boʻlishgan. Hanafiy mazhabi olimlaridan “Ar-rofeʼ fiy sharh al-badi”ning muallifi Ibn Amir Hoj Muso ibn Muhammad Tabriziy Hanafiy (vaf.736/1335), Usmon ibn Abdulmalik Kurdiy Misriy (vaf.738/1337), toʻrt jilddan iborat sharhni taʼlif qilgan Sirojiddin Abu Hafs Umar ibn Ishoq Hindiy (vaf.773/1371), Kamoliddin ibn Humom Hanafiy (vaf.861/1456), Ibn Xatib Jibrin (vaf.739/1338) kabi olimlarni, shofeiyy mazhabi olimlaridan esa, “Bayanu maʼaniy al-badi” asarining muallifi Shamsiddin Mahmud ibn Abdurahmon Asfahoniy Shofeiyy (vaf.749/1348), Uvayniyya Mavsiliy nomi bilan tanilgan Zayniddin Ali ibn Husayn (vaf.755/1354) kabi olimlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu asarga yozilgan hoshiyalardan “Mavlono-zoda” nomi bilan mashhur boʻlgan Muhibbuddin Muhammad

¹⁶ Muzaffariddin ibn Soatyi. Nihayat al-vusul ila ilm al-usul / Saʼd ibn Gʻarir ibn Mahdiy Sulamiy tahqiqi. – Makkai mukarrama: Jomiati umm al-quro, 1418/1997. – B.40.

¹⁷ Muallif bu oʻrinda qoida degan soʻzning asliy maʼnosini iroda qilmagan. Balki kitobning boblarini ushbu tartibda ajratgan. Q: Muzaffariddin ibn Soatyi. Nihayat al-vusul ila ilm al-usul / Saʼd ibn Gʻarir ibn Mahdiy Sulamiy tahqiqi. – Makkai mukarrama: Jomiati umm al-quro, 1418/1997. – B.40.

ibn Ahmad Hanafiy (vaf.859/1454) yozgan hoshiyasi mashhurdir” deya keltirilgan¹⁸. Bu asarni Sa’d ibn G’arir ibn Mahdiy Sulamiy 1985-yilda Makkai mukarramadagi shariat va islomiy tadqiqotlar fakultetida doktorlik darajasini olish uchun va 1982-yilda Muhammad ibn Yahyo ibn Muhammad Oqqayo Azhar universiteti shariat va qonun fakultetida doktorlik darajasini olish uchun tahqiq qilgan.

4. Ad-durr al-manzud fiy ar-roddi ala faylasuf al-yahud (ya’ni, yahudiylar faylasufi Ibn Kammunaga raddiya berish borasida tizilgan dur)¹⁹. Bu asar falsafa borasida yozilgan bo’lib, muallif bu asarni “Tanqih al-abhas an al-milal as-salas” (Uch millat – yahudiy, nasroniy va islom millati – borasidagi bahslarni tadqiq qilish)²⁰ asarini yozib, nubuvvat (payg’ambarlik) borasida nojo’ya gaplarni gapirgan hamda Ibn Kamuna (vaf.676/1277) nomi bilan mashhur bo’lgan Sa’d ibn Mansur ibn Husaynga raddiya sifatida yozgan. Ibn Kamunaning bu asariga Zayniddin Sarija ibn Muhammad Malatiy Mardiniy (vaf.788/1386) ham raddiya sifatida asar yozib, uni “Nuhuzi hasis an-nuhud ila xavzi xabis al-yahud” (Yahudlarning jirkanch olimiga qarata ko’tarilgan baland bir tepalik) deb nomlagan.

5. Fath al-mujniy sharh al-mug’niy. “Majma’ al-bahrayn” asariga Ahmad ibn Ibrohim ibn Ayyub Ayntobiy (vaf.767/1365) tomonidan yozilgan “al-Manba” nomli sharhni doktorlik darajasini olish uchun tahqiq qilgan Yahyo Muhammadamin Hasan Ibrohim Ibn Soatiyning asarlari ichida “Fath al-mujniy sharh al-mug’niy” asarini ham keltirib o’tgan. Bu asar hanafiy fiqhida mashhur bo’lgan olimlardan Jaloliddin Xobbaziy (vaf.691/1292) tomonidan yozilgan “al-Mug’niy fiy usul al-fiqh” asariga yozilgan sharhdir²¹.

6. Al-murtaqo sharh al-multaqo fil furu’. Yahyo Muhammadamin Hasan Ibrohim tahqiq asnosida muallifning qalamiga mansub yana bir asarni keltirib o’tgan. Bu asarning nomi “al-Murtaqo sharh al-multaqo fil furu’”dir. Muallif bu asarda hanafiy fiqhiga doir “al-Multaqo” asarini sharhlagan. Bu asar yirik oltita jilddan iboratdir²².

¹⁸ Hoji Xalifa Mustafo ibn Abdulloh. Kashf az-zunun an asamiy al-kutubi val-funun.-Bayrut/Livan: Daru ihya at-turos al-arabiy,(yili ko’rsatilmagan) – J.I. – B.235,236.

¹⁹ Hoji Xalifa Mustafo ibn Abdulloh. Kashf az-zunun an asamiy al-kutubi val-funun.-Bayrut/Livan: Daru ihya at-turos al-arabiy,(yili ko’rsatilmagan) –J.II.-B.1599,1600.

²⁰ U “izz ad-davlat al-isroiliyya” (Isroil davlatining faxri) deya tanilgan. Uning qalamiga mansub “Sharh al-usul”, “Al-jumal min muhimmat al-ilm”, “Al-amal fil mantiq”, “Sharh al-hikmat li Ibn Sino” “Sharhi talvihah as-Sahravardiy fil hikmat”, “al-Kashif fil mantiq”, “Kitab al-hikmat al-jadida” asarlar mavjud. Q: Hoji Xalifa Mustafo ibn Abdulloh. Kashf az-zunun an asamiy al-kutubi val-funun.– Bayrut/Livan: Daru ihya at-turos al-arabiy,(yili ko’rsatilmagan) – J.I. – B.495.

²¹ Ahmad ibn Ibrohim ibn Ayyub Ayntobiy. Al-manba’ sharh al-majma’. – Saudia Arabistoni: Madinai Munavvara universiteti, fiqh fakulteti, 1433/2012. – B.17

²² Yuqoridagi manba, yuqoridagi bet.

7. Adabiy to‘plam. Abu Muhammad Abdulloh Yofi’iy²³ va Abdulhay Laknaviy²⁴ muallifning qalamiga mansub adabiyotga doir asar ham mavjudligini keltirishgan. Biroq asar nomini zikr qilishmagan. Ibn Soatiyning tarjimai holi haqida yozilgan asarlar ichida bu ikki olimning asaridan boshqa manbalarda adabiyot borasida uning asar yozganligi haqida ma’lumot keltirilmagan.

8. Sher’iy to‘plam. Sa’d ibn G’arir ibn Mahdiy Sulamiy “Nihayat al-vusul ila ilm al-usul” asarini tahqiq qilish asnosida muallifning yozgan asarlari haqida bayon qilib, uning qalamiga mansub xutba va she’rlar jamlanmasi ham mavjud ekanligini keltirib o‘tgan hamda bunga isbot sifatida Ibn Fuvatiyning “Unga tegishli xutba va she’rlar jamlanmasi ham mavjud. U Mustansiriyya madrasasining jome masjidida Muhiddin ibn Muhayyo Abbosiyning noibi sifatida ikki hayit xutbalarini o‘qib berar edi”²⁵ degan gapini keltirgan²⁶.

Xulosa qilib aytganda, muallif o‘z davrida ro‘y berayotgan ilm-fanga bo‘lgan to‘siqlar bo‘lishiga qaramasdan, o‘z faoliyatini tugatmagan va din ilmlarini keyingi ummatga yetkazishda bizga yuksak namuna bo‘la olgan. U yozgan asarlar ham uning ko‘pgina sohalarda mohir bo‘lganligiga dalolat qiladi.

Uning yozgan asarlarini ko‘zdan kechirish asnosida shularni xulosa qilib keltirishimiz mumkinki, muallif o‘zi yashagan davrda Bag‘dodda sodir bo‘lgan ishlarga qaramasdan, o‘zining qisqa umri davomida diniy ilmlarni keyingi ummatga to‘la-to‘kis yetkazishga harakat qilganligi tahsinga sazovordir. Hozirgi kunda o‘zini ilm ahliman, deya da’vo qiladigan har bir inson Muzaffariddin ibn Soatiy va shu kabi olimlarning hayot yo‘lini o‘rganib chiqishi va ulardan haqiqiy din xizmati qay tariqa bo‘lishini o‘rganishi hamda u kabi olimlarning ibratli hayot yo‘lini o‘z hayotida tadbqiq qilishi lozim.

²³ Abu Muhammad Abdulloh Yofi’iy. Mir’at al-jinan va ibrat al-yaqzon. – Bayrut/Livan: Dar al-kutub al-ilmiyya, 1417/1997. – J.IV. – B.170.

²⁴ Abulhasanot Abdulhay Laknaviy. Al-jome’ as-sag’ir ma’a sharhihi an-nafi’ al-kabir. – Karachi/Pokiston: Idarot al-Qur’an, 1411/1990. – B.27.

²⁵ Kamoliddin Abulfazl Abdurazzoq ibn Ahmad ibn Fuvatiy Shayboniy. Majma’ al-adab fiy mo’jam al-alqob / Muhammad Kozim tahqiqi. – Tehron/Eron: Majma’ ihya as-saqofat al-islamiyya, – J.V. – B.260.

²⁶ Muzaffariddin ibn Soatiy. Nihayat al-vusul ila ilm al-usul / Sa’d ibn G’arir ibn Mahdiy Sulamiy tahqiqi. – Makkai mukarrama: Jomiati umm al-quro, 1418/1997. – B.34

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

Arab tilidagi adabiyotlar

1. Abdulhay Laknaviy. Al-Favoidul-bahiyya. – Qohira: Dorul-kitabu-l-islamiy, 2003. – 249 b.
2. Abdulhay Laknaviy. An-nafi alkabir sharh al-jami as-sag‘ir. – Karachi/Pokiston: Idarot al-Qur‘an val ulum al-islamiyya, 1990. – 541 b.
3. Abduqodir Qurashiy. Al-javahir al-muziyya fiy tobaqot al-hanafiyya. – Haydarobod/Hindiston: Majlisu dairot al-ma‘orif an-nizomiya, (Yili ko‘rsatilmagan). – J. I, II. – 417 b.
4. Abu Hafs Nasafiy. Tilbatut-talaba fil-istilohotil-fiqhiyya. – Bayrut: Doru-n-nafois, 1995. – 448 b.
5. Ahmad ibn Ibrohim ibn Ayyub Ayntobiy. Sharhi majma‘ al-bahrayn. – Madinai munavvara: Madinai munavvara universiteti, 1434. – 798 b.
6. Ahmad ibn Muhammad Nasiriddin Naqib. Al-mazhab al-hanafiy. – Ar-riyod: Maktabat ar-rushd, 2001. – 935 b.
7. Ahmad ibn Muhammad ibn Ali Fayumiy. Al-misbahul-munir. – Bayrut: Maktabatu Lubnon, 1987. – 273 b.
8. Ahmad ibn Muhammad Nosiruddin Naqib. Al-Mazhabul-hanafiy. – Riyoz: Al-maktabatur-rushd, 2001. – J. 1. – 523 b.
9. Ahmad ibn Muhammad Tahtoviy. Xoshiyatu Maroqil-faloh. – Bayrut: Dorul-kutubil-ilmiyya, 1986. – 544 b.
10. Ahmad ibn Muhammad Tahtoviy. Hoshiyatu Durril-muxtor. – Bayrut: Dorul-kutubil-ilmiyya, 2007. – 438 b.

Internet saytlari

1. www.alukah.net
2. www.wikipedia.org
3. www.waqfeya.com
4. www.noorbook.com